

INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING MILLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

Jo'rayev Dilshod Rashidovich

*Toshkent shahar Milliy markazda pedagoglarni qayta tayorlas
Unisitetida exnologiya fani metodisti, mustaqil tadqiqotchi.*

Annotatsiya: Maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalarining milliy ta'lim tizimimizdagi o'rni va vazifasi tahlil qilingan bo'lib, bunda ta'limni demokratlashtirish va erkinlashtirishda ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, texnologiya, innovatsiya, novatsiya, pedagogika.

Ta'limda ro'y berayotgan islohotlar chuqur o'zgarishlar ta'lim tizimining demokratiyalashuvi va insonparvarlashuvi ta'limni boshqarish tizimining yangilanishi ta'lim sifatiga bo'lgan ob'ektiv talabi pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash zarurligini ko'rsatmoqda. Shuningdek shaxsning pedagogik faoliyatga yo'nalganligi to'g'risida qator olimlar o'z fikrlarini bildirishgan, jumladan, "Shaxsning pedagogik kasbga qiziqishi va faoliyatning ushbu turi bilan shug'ullanishga bo'lgan ishtiyoqi", "Bolalarga bo'lgan munosabat, pedagogik mehnatga ishtiyoq, pedagogik kuzatuvchanlik qobiliyati". Demak, shaxsning pedagogik faoliyatga yo'nalganligi uning dunyoqarashi, pedagogik kasbiga qiziqishi, u bilan shug'ullanishga bo'lgan layoqati bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda ta'limdagi innovatsion harakatlarning xususiyatini o'rganmagan, ta'lim sohasidagi innovatsion faoliyatning mohiyatini tushunmaydigan, innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng egallamagan o'qituvchini zamonaviy pedagog, yetuk mutaxassis deb hisoblab bo'lmaydi.

Bugungi kunda pedagogika fanining taraqqiyotini bevosita innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish davrning asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish yuqori saviyada o'qitishni ta'minlash va malakali kadrlarni zamonaviy ta'lim dasturlari asosida tayyorlashdan iborat. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish ob'ekti – barcha uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari bo'lib, unda amalga oshiriladigan asosiy ta'lim-tarbiya jarayonlari hisoblanadi.

Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (innovation) —yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida "innovatsiya" tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi. Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari quyidagilar sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;

- ilg'or ish uslublari. Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Ta'lim innovatsiyalari —innovatsion ta'lim deb ham nomlanadi. Innovatsion ta'lim tushunchasi birinchi bor 1979 yilda "Rim klubida" qo'llanilgan. Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Ular faoliyat yo'nalishiga ko'ra: 1. **Pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.** 2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga

ko'ra: **radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.** 3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: **tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.** 4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra: **jamo'a tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.** Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham novatsiya, innovatsiya hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. **Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u holda u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.** Ta'lim tizimida tub isloxotlar zarurligini e'tirof etish uchun o'tgan asrning 80-yidlaridan boshlab pedagogik leksikonda "Innovatsiya" iborasi qo'llana boshladi, U pedagogika nazariyasi va amaliyotida allaqachon o'z o'rnini topgan bo'lsada, uning mohiyati shu paytgacha to'laqonli yoritilmagan hisoblanadi, yani yakdillik mavjud emas. Keng ma'noda "Innovatsiya" pedagogik tizimga yangilik kiritish yo'li bilan ta'lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, sifat va samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. Pedagogika tizimiga kiritilgan yangilik sifat va samaradorlikka salbiy ta'sir qilishi ham mumkin. Biz tizimga uning ichki zaxira va imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida kiritilgan yangiliklarnigina innovatsiya deb tushunamiz. Pedagogika tizimni takomillashtirib, yuqori sifat va samaradorlikka erishishga oid g'oya, nazariya, qoida, shakl, metodlar va vositalar tizimini pedagogik innovatsiyalar sifatida kabul qilish mumkin. Sunggi 25-30 yil davomida pedagogik tizimga ko'plab yangiliklar kiritilayotganligining guvoh bo'lib turibmiz. Misol sifatida yangi konsepsiyalar, investitsiyalar, dts testlar, muqobil o'quv rejalari, yangi turdagi ta'lim muassasalari, texnologiyalar va shu kabilarni ko'rsatish mumkin. Pedagogik jarayon o'zining mohiyatiga ko'ra har doim texnologiyalashadi. Texnologiya pedagogik tizimning ichki sifati bo'lib, uning imkoniyatlari qat'iy qonuniyat va qoidalarga bo'ysunadi. Texnologiyada variativlikka imkon berilmaydi, undan biror kichik komponentni olib talshab bo'lmaydi, chunki, texnologiyada ortiqchalikning o'zi mavjud emas. Undaga biror komponentni almashtirsak, albatta natija o'zgarib ketadi. Tizimning umumiy nazariyasidan ma'lumki, bir paytning uzida uning ko'p parametrlarini yaxshilash mumkin emas. Shuning uchun ham tizimga yangiliklarni asta-sekinlik bilan kiritib, uning foydaliligiga ishonch hosil qilgandan so'ng har tomonlama tekshirish, keyingi o'zgartirishlar haqida o'ylash zarur. Tahlillarimiz pedagogik tizimni takomillashtirishning quyidagicha ikkita: jadal va ekstensiv yo'llarining mavjudligini ko'rsatadi. Jadal yo'l, pedagogik tizimning ichki imkoniyatlari hisobiga rivojlantirishni, ekstensiv yo'l esa qo'shimcha vositalar, jihozlar, vaqt, kuch, mablag'lar jalb etishni nazarda tutadi. Pedagogik jarayon ko'p qirrali bo'lib, unga tarixiy, ilmiy-pedagogik psixologik, fiziologik gigienik, tashkiliy boshqaruv, iqtisodiy va ijtimoiy, tibbiy, mafkuraviy, huquqiy me'yoriy va shu kabi nuqtai nazarlardan yondashish mumkinligi ko'p sonli olimlar va amaliyotchilar tomonidan ta'kidlangai. Pedagogik jarayoni jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil deb qarab J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonovlar uni: "Ijtimoiy hodisa, nazariy fan, o'quv fani, ta'lim-tarbiya tizimi, jarayon, pedagogik faoliyat va uning metodikalari hamda aloqador fanlarning ilmiy-tadqiqot sohasi" tarzida talqin etadilar. Bundan pedagogik texnologiya ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor omil ekanligi kelib chiqadi. Pedagogik texnologiyalar mohiyati va mazmuniga ko'ra jamiyatshunoslik, psixologiya, fiziologiya, pedagogika fanlari nazariyasini ham o'z ichiga qamrab oladi.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

«Texnologiya» iborasi grekcha - «techne» - mahorat, san'at, va «logos» ta'limot, o'rgataman yoki o'rganaman ma'nosini anglatadi. U pedagogikaga ishlab chiqarish sohasidan kirib kelgan. Ishlab chiqarish nuktai nazaridan olib qaraganda, texnologiya mehnat ob'ektiga maqsadga muvofiq; ta'sir etib, uning holati, xususiyati, shakli kabilarni o'zgartirish san'ati, mahoratini o'zlashtirish ma'nosini anglatadi. Ta'lim texnologiyasi nazariyasining umumiy asoslarini uning qonuniyatlari, tamoyillari, maqsadi, mazmuni, vazifalari, ob'ektiv hamda sub'ektiv omil, asosiy tushuncha va mezonlari kabilar tashkil etadi. «Ta'lim texnologiyasi» iborasi esa inglizcha educational technology - ta'lim berish san'ati, mahorati ma'nosini anglatadi. Tag'lillarimiz G'arbiy Yevropa hamda AQShda shaxsga ta'lim-tarbiya berish va uni rivojlantirish jarayoni "Ta'lim jarayoni" deb yuritiladi, shunga qarab mazkur mamlakatlarda "pedagogik texnologiya" emas, "ta'lim texnologiyasi" iborasi ko'proq qo'llaniladi. Hatto, YuNESKO tashkiloti bergan izoh, ham olimlarimiz tomonidan turlicha talqin etilganligiga guvoh bo'lib turibmiz. Hozirgi paytda aksariyat mamlakatlarda, shu jumladan, respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida turlicha nomlangan texnologiyalardan foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarning barchasi ma'lum umumiylikka ega bo'lib, ular xususiy jihatlari binoan tasniflanishi V.S.Kukushin, G.K.Selevko, G.Berdiev kabi ko'plab olimlar tomonidan ko'rsatilgan. Faol ta'lim omillaridan foydalanish g'oyalari XIV-XVI asrlarda ilgari surilgan bo'lib, ularni ongli, mustaqil izlanuvchan faoliyatlari orqali o'zlashtirishlariga erishish zarur, ana shunda bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlar muhim qiymatga ega bo'lishi ko'rsatilgan. O'quvchilar shaxsida mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik his-tuyg'ulari tanqidiy fikrlash kabi sifatlarni shakllantirishda faol ta'lim omillaridan foydalaniladi. Bunday omillar, nomidan ma'lum bo'lib turibdiki, bu jarayon o'quvchilarning o'ziga xos individual xususiyatlarini rivojlantirish, namoyon etishga shart-sharoit yaratish uchun qo'llaniladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: TDPU, 2006.
2. Ishmuhamedov R. J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2004.